

BO'LAJAK O'QUVCHILARNING MAKTAB TA'LIMIGA IJTIMOY TAYYORGARLIGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tayirovna

Alfraganus universiteti Psixologiya kafedrası v.b

dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17221649>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolajak oquvchining maktab ta'limiga ijtimoiy tayyorgarligi aniqlash bolaning rivojlanishiga ijtimoiy muhitning qanchalik ta'sr etishi va uning mexanizmlari va muloqotning qay darajada muhimligini I. Shapovalenkaning hamda M. I. Lisinaning nazariy fikrlari keltirib o'tiladi. Bolaning maktab muhitiga moslashuvi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishishi, o'quv faoliyatiga ijobiy munosabat bildirishida oila hamda pedagoglarning hamkorligi muhim omil sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhit, muloqat, diqqat, iroda, individual, axloqiy tarbiya, oila, ijtimoiy tayyorgarlik.

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ГОТОВНОСТИ БУДУЩИХ УЧЕНИКОВ К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Аннотация. В данной статье рассматривается социальная готовность будущего ученика к школьному обучению, определяется, насколько социальная среда влияет на развитие ребёнка, а также анализируются её механизмы и значимость общения. Приведены теоретические взгляды И. Шаповаленко и М. И. Лисиной. Отмечается, что в процессе адаптации ребёнка к школьной среде важную роль играют его взаимодействие со сверстниками и взрослыми, а также сотрудничество семьи и педагогов.

Ключевые слова: социальная среда, общение, внимание, воля, индивидуальность, нравственное воспитание, семья, социальная готовность.

MECHANISMS OF FORMING THE SOCIAL READINESS OF FUTURE STUDENTS FOR SCHOOL EDUCATION

Annotation

This article examines the social readiness of prospective students for school education, highlighting the impact of the social environment on the child's development, as well as the mechanisms of this influence and the importance of communication. Theoretical perspectives of I. Shapovalenko and M. I. Lisina are presented. It is emphasized that a child's adaptation to the school environment largely depends on interaction with peers and adults, as well as on the cooperation between family and teachers.

Keywords: social environment, communication, attention, willpower, individuality, moral education, family, social readiness.

Kirish; Maktabga yoshdagi bolaning ijtimoiy tayyorgarligini shakllantirish vositasi u yashaydigan va rivojlanadigan muhiti hisoblanadi. Chunki bolaning yashaydigan muhiti uning qadriyatlarini, tashqi olamga bo'lgan munosabati va atrofdagi insonlarga bo'lgan munosabatlari qanday bo'lishini begilab beradi.

Bolalar kattalar bilan muloqat qilish orqali o'zlarini anglay boshlaydilar. Chunki bolalar

kattalar ta'siri ostida o'zi haqida bilim va g'oyalarni to'playdi va go'zal xulq va tarbiyaga ega bo'lishida katta ro'l o'ynadi. Bolalar o'zlarini anglashni rivojlantirib borishda kattalarning ro'li quyiqaadagicha bo'ladi;

1. Bolaning faoliyatlari ya'ni u bo'lishi mumkin o'yin faoliyatida, mehnat faoliyatida yoki mehnat faoliyatini va undagi xatti harakatlarini baholash
2. Bolaga uning sifati va bor imkoniyatlari haqida ma'lumot bersh.
3. Shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish orqali bola o'zida keyinchalik o'zini baholaydi
4. Bola o'z xatti- harakatlarini anglashi hamda, o'zidagi xatti harakatlar orqali boshqa odamning xatti harakatlari bilan solishtirish yordamida o'zini anglab yetishiga undash.

Aslida bu bollalarning asosiy faoliyatlari shulardan iborat bo'ladi;

- predmetlarni o'rganish
- individual predmetli o'yinlar, jamoa-syujetli rolli o'yinlar
- individual va guruhij ijod
- musobaqa o'yinlari
- muloqat o'yinlari
- uy mehnati

Bu yoshda bolalar ko'p narsalarga qiziq boshlashadi va muayyan bir narsani bilishga bolgan chuqurlashtirilgan qizish bolani diqqat va irodasini kuchaytiradi

Mahalliy psixolog M.I.Lisina bolaning kattalar bilan muloqotini boshqa shaxs bo'lgan "o'ziga xos faoliyat" deb hisobladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'z tengdoshlari, oila va kattalar bilan muloqot qiladilar. Bolalar bir nechta muloqat shakllari bilan shakllanadilar. Birinchisi vaziyatli shaxsiy muloqot hisoblanadi.

Ikkinchisi tendoshlari bilan munosabatlari bunda suhbatdosh faoliyatidagi sheriklik hisoblanadi.

Uchinchi kattalar bilan bo'lgan munosabatlari. Bunda emotsional qo'llab quvvatlash deyiladi.

To'rtinchisi nizolar bo'ladi ya'ni bola 7 yoshda inqiroz ijtimoiy rollarning almashinishi hisoblanadi.

Beshinchisi Emotsiyalar va o'yin faoliyatidagi muloqat jarayonlar kiradi. O'yinda bolaning emotsional rag'batlantirilishi yaxshi natija beradi.

Bolalar o'yin faoliyatida turli ro'llarni o'ynaydilar va o'z xulq - atvorlarini rolga muvofiq ravishda moslashtirish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali bolalarning bir- birlariga bo'lgan munosabatlarini ham aniqlash mumkin. Bu davrda bola o'yin o'ynaganda ko'proq o'zining xatti harakatlariga e'tibor beradi. O'yin orqali bola boshqa bolalar bilan muloqatga kirishadi. Hamkorlikda o'ynaladigan o'yinlarda bolalar bir birlarini tushunishga va bir birlariga yordam berishni o'rganadilar. Muloqatga bo'lgan ehtiyoj o'yinda qondiriladi. Bu davrda endi bola o'yinlarni faqat o'zi o'ynamasdan boshqa bolalar bilan o'ynashga harakat qiladilar. Kim o'yinni tashkil qilsa o'sha boshliq bo'lgisi kelib qoladi. Shunda nizolar kelib chiqadi. O'yinda ikki turdagi munosabatlar mavjud bo'ladi:

1. Ro'l o'ynash - bu munosabatlar syujet va ro'ldagi munosobatlarni shakllantiradi.
2. Haqiqiy- bunda umumiy vazifani bajaradigan o'rtoqlar, tengdoshlar sifatidagi bolalarning munosabatlaridir.

O'yinda bolalarning ro'li xarakteri va temperamenti bilan bog'liqdir. Shuning uchun har

bir jamoda “liderlar”, “yulduzlar” va “izolyatsiya qilinganlar” bor bo'ladi.

O'yin asosan tashqi muhitdagi narsalarni va voqealarni anglash emas, balki tarbiyasi vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolaning individual hamda psixik jarayonlari shakllanadi. Bolalar bu davrda predmetli o'yinlar, musobaqa o'yinlar, uy mehnati. o'yin-muloqat o'ynashadi. o'yin asosan tashqi muhitdagi narsalarni va voqealarni anglash emas, balki tarbiyasi vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolaning individual hamda psixik jarayonlari shakllanadi. Bolalar bu davrda predmetli o'yinlar, musobaqa o'yinlar, uy mehnati. o'yin- muloqat o'ynashadi.

Bu yosh davrdagi bolalarning sevimli mashg'ulotlaridan biri rasm chizishdir. Bola rasmda nimani qay tarzda va qanday holatda ifodalashiga qarab tashqi olamdagi voqea va hodisalarni qanday idrok qilishi, xayoli, xotirasi , tafakkuri haqida bilishimiz mumkin. Rasmlar bolaning psixologik va jismoniy holatiga qarab o'zgarishi mumkin. I.Shapovalenkoning ta'kidlashicha, predmetli faoliyat doirasida yuzaga keladigan tasviriy faoliyat maktabgacha yosh davrida o'yin sifatida rivojlanadi.

Ijtimoiy tayyorgarlikning muhin ko'rsatkichlari mavjud. Bular; bolaning bilim olishga bo'lgan istagi, bilmagan narsalarini o'rganishni boshlash uchun motivatsiya, kattalar tomonidan bolalarga beriladigan topshiriqlarni tushunish va bajarish qobiliyati, hamkorlik qilish qobiliyati, biror bir vaziyatga moslashish qobiliyati, boshlagan ishini oxiri yetkazib qo'yish, oddiy muammolarini o'zi anglab yetgan holda, muammoli vaziyatga yechim topish, maqsadni qo'ya olish, biror bir ish qilishdan oldin o'ylash va uni bajarish va o'z harakatining natijasini baholash. Bu fazilatlar bolaning ijtimoiy muhitga qiynalmasdan moslashishiga yordam beradi va maktabga chiqqanida u yerdagi muhitga moslasha olishida yodam beradi. Ota- onalar bolalarini faqatgina, intellektual yoki jismoniy jihatdan rivojlantirib qolmay balki ijtimoiy tayyorgarligini ham rivojlantirilishi kerak. Aks holda bola uchun qiyin bo'ladi.

Chunki bola ijtimoiy muhitda yashar ekan, unga ijtimoiy muhitning ta'sirlari bo'ladi. Bu muhitda har xil insonlarning bo'lishi yoki tengdoshlarning unga bo'lgan munosabatlari bolaning tarbiyasiga va ta'limiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Biz bu ta'sirlarni ijobiy va salbiy deya olishimiz mumkin.

Maktab yoshidagi bolalar o'zlari erkin va mutaqlil harakat qiladilar. Ammo bu paytda o'zlarining ota onalarining erkalashlariga, diqqat e'tiborda bo'lishlariga harakat qiladilar. Bolalar o'z kamchilik va afzalliklarini yaxshi biladilar, shuningdek atrofdagilarning bunga munosabatini inobatga oladilar. Bolalar bu yoshda ko'pincha ataylab qaysarlik qiladilar. Bola o'zini onasiga bolalik hislatlarini ko'rsatgan holda, bola ro'lini o'ynashi mumkin. Bu onada bolaga nisbatan mehr uyg'onishiga va ko'ngli yumshashiga olib keladi.

Bolalar boshqalarga taqlid qilib yashab, bolalar guruhlariga muloqatning turli shakllarini o'tkazadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning boshqalar bilan muloqatida o'zini o'zi qadrlashi katta ahamiyatga ega . Bola qo'shimcha faoliyatlar va boshqa insonlar bilan muloqat qilish natijasida ham o'z xatti harakatlari uchun muhim ko'rsatmalarni ham o'rganadilar. Bola o'zining „men“ ga bahosi u o'zida kuzatib turgan narsasini, boshqa odamlarda ko'rgan narsasi bilan taqqoslab keladi. Bularning barchasi bolani o'zini anglashi, o'zini hurmat qilishi va o'zini qadrlashi hisoblanadi.

O'z- o'zini hurmat qilish darajasi yetarli bo'lmagan bolalar harakatchan , bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga tez o'tadi, o'zini tuta olmaydi, ular o'z xatti harakatlarining natijasi to'g'risida bosh qotirib o'tirmaydilar. Ular o'zlarining muvaffaqiyatsizlaridan behabar bo'ladilar. Bunday

bolalalar nomoyishkor va hukmronlikka moyildir.

Demak, Har bir bola maktab oldidan bir qancha rivojlanish bosqichlaridan o'tishi lozim. Ulardagi ijtimoiy muhitni shakllantirish biz yoshi kattalarni sog'lom muhit yaratib berishidadir. Ijtimoiy muhitdagi har qanday narsa bolaning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1 may
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
3. P. Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" "O'qituvchi" T.: 1993-yil.
4. Qodirova F., Sh. Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur. 2019.
5. Xalilova N.I. Norqo'ziev D.B. Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi. Toshkent. 2009-yil.
6. Z.I.Nishanova N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiya. pedagogik psixologiya.
7. Shamshetova Anjim Karamaddinovna. Saipova Maloxat Latipovna. Bolalar psixologiyasi.
8. Sh.A.Dusmuhammedova, N.T. Rasylova. Rivojlanish psixologiyasi va diffrensial psixologiya
9. Sh.A. Do'stmuhammedova, X.A.Tillashayhova, G.Baykunosova, G.Ziyavitdinova Umumiy psixologiya
10. Ijtimoiy pedagogika O'quv qo'llanma; F.Egamberdiyeva, M.Toshov, U.Mamanazarova 2023 "EFFECT-D" nashriyoti,2023